

Sinf: 2-sinf | Fan: Matematika | Yondashuv: STEM asosida

Mashg'ulotning maqsadi

O'quvchilar ikki xonali va uch xonali sonlarni ustun shaklida qo'shish va ayirish tartibini o'zlashtiradilar. Ular o'nlik va birliklar qoidalariga asoslangan holda ustun shaklda to'g'ri amallarni bajarishni va natijalarni tekshirishni o'rganadilar.

Mashg'ulot davomiyligi

40 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar 2-sinf Matematika darsligidagi **Ustun ko'rinishida qo'shish va ayirish** mavzusidagi topshiriqlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

Ustun shaklida qo'shishda va ayirishda birliklar birliklar ostiga, o'nliklar o'nliklar ostiga yoziladi.

+

Qo'shishda, agar birliklar yig'indisi 10 dan oshsa, ortgan 1 birlik o'nliklarga qo'shiladi.

— Ayirishda, agar birlikda yetarli raqam bo'lmasa, o'nlikdan "1" birlik olinadi.

Amaliy mashg'ulot: "Ustunli hisob-kitob o'yinlari"

Mashg'ulot maqsadi: O'quvchilar ustun shaklida qo'shish va ayirishni o'rganadi, sonlar ustida tahlil asosida amallar bajaradi.

Mashg'ulot bosqichlari:

1. Ustun shaklida yozish va hisoblash

— O'quvchilar 2 ta sonni ustun shaklida yozadilar va qo'shish amalini bajaradilar:

Masalan:

$$\begin{array}{r} 47 \\ + \\ 28 \\ \hline \end{array}$$

2. Ortgan birlik bilan ishlash

— Agar qo'shishda birliklar yig'indisi 10 dan katta bo'lsa, o'quvchi ortgan 1 ni o'nliklarga o'tkazib yozadi.

3. Konstruktor modeli yasash

- Raqamli bloklar (Raqam yozilgan kartochkalar) masalan: 3, 5, 7, 2...)) yordamida ustun ko'rinishida shakl yasash
- Rangli kvadrat va doiralar yordamida birlik va o'nlikni ajratib ko'rsatish

STEM fanlar bilan integratsiyasi

Matematika

- Sonlarni ustun shaklida to'g'ri yozish va hisoblash
- Ortgan birlik bilan ishlash va amal natijalarini tahlil qilish

Texnologiya

- Ustun shaklidagi misol maketini yasash (rangli bloklar, qog'ozlar)
- Sonlarni guruhlab, birlik va o'nlik asosida joylashtirish

Informatika

- Raqamlar ustun ko'rinishida kiritilishi va hisob natijalarini to'g'ri joylashtirish
- Interaktiv platformalarda "ustunli amalni yakunla" o'yini

Tabiiy fanlar

- Haqiqiy hayotdagi misollar: sanash, guruhlash (savatchadagi mevalar soni)
- Taqqoslash va natijani tahlil qilish asosida mantiqiy bog'lanish hosil qilish

Qiziqarli fakt

-  Dunyoning eng yirik matematik amallari ustun shaklida yechiladi!